

SAYFIDDIN QUTUZNING FAOLIYATIDA NAMOYON BO'LGAN AXLOQIY-ESTETIK QADRIYATLAR

Nurmatov Bobir Abdusattorovich

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received: 12.04.2025

Revised: 13.04.2025

Accepted: 16.04.2025

KEYWORDS:

*Birlashish, harakat,
safari, liderlik,
kulminatsiya, mo'g'ul,
mag'lubiyat.*

Sayfiddin Qutuz shaxsi musulmon Sharqi tarixida shunchaki harbiy sarkarda yoki qisqa muddat hokimiyat tepasida bo'lgan hukmdor sifatida emas, balki ijtimoiy ruhiyatda konsolidatsiyaviy kuch – jamiyatning o'zini anglash, birlashish va harakatga safari bo'lishiga sabab bo'lgan metaforik lider sifatida namoyon bo'ladi.

Qutuzning konsolidatsiyaviy kuchga aylanishi shaxsiy xarizma, strategik tafakkur va jamiyatning ehtiyojlarini chuqur anglash asosida yuzaga keldi. U jamiyatdagi ijtimoiy segmentlar – amirlar, ulamolar, askarlar va xaloyiq o'rtasidagi ixtiloflarni vaqtincha muvozanatlashtirib, umumiy “zarurat” atrofida birlashtirdi. Bu esa ijtimoiy falsafaning antropologik mezoniga – jamiyatning harakatini ruhiy yadro orqali shakllantirish prinsipiga mos keladi. Qutuz ana shu yadroning faollashtiruvchisi, uni real harakatga aylantiruvchi agenti bo'ldi²⁷.

Yaqinda Ra'no Xodjayeva tomonidan aniqlangan tarixiy dalillarga ko'ra, Qutuz aslida Xorazmshohlar sulolasiga mansub bo'lib, Jaloliddin

²⁷ Shahob ad-Din al-Umariy. (2002). Masalik al-Absor fi Mamalik al-Amsor. Abu Zabi: al-Majma' as-Saqofiy.; Abu al-Fido, I. (1907). Al-Muxtasar fi Axbar al-Bashar. Al-Qahira: al-Husayniyya al-Misriyya.

Manguberdiyning singlisi tomonidan dunyoga kelgan. Mo'g'ullar tomonidan asir olinib Misrga olib kelingan bu shaxsning hayoti — o'ta murakkab ijtimoiy-madaniy konversiyaning namunasidir²⁸. Bu holat Qutuzni faqat Misr sultoni sifatida emas, balki butun musulmon dunyosining g'arbiy va sharqiy bo'limlarini ramziy jihatdan bog'lovchi ko'priikka aylantirdi. Qutuz timsolida musulmon dunyosining turli sivilizatsion elementlari — xorazmiylar, qipchoqlar, turkiy mamluklar birlashdi. Ayn Jalutdagi g'alaba ana shu konsolidatsiyaning harbiy emas, balki madaniy-mafkuraviy aksidir.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, Qutuzning nutqlari va siyosiy da'vatlari ijtimoiy ongni harakatga undovchi vositalar bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Ibn Taghrībirdī qayd etganidek, Qutuz "Men halok bo'lsam, o'rnimni boshqa fidoyi egallasin. Biz hammamiz Alloh oldida mas'ulmiz" degan da'vati bilan liderlikni shaxsiy ambitsiyadan chiqardi va uni jamiyatning ilohiylashtirilgan vazifasiga aylantirdi²⁹. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan bu "ijtimoiy ongning mobilizatsiyasi" deb ta'riflanadi: jamiyat o'zining maqsadi, yo'nalishi va ruhiy markazini shaxs orqali anglaydi. Sayfiddin Qutuz — bu tarixiy hukmdor emas, balki ma'naviy konsensus timsoli, jamiyatning o'zligini qayta anglashiga sabab bo'lgan ramzidir. U harakat, iroda, ruhiyat va maqsadning bir nuqtada jam bo'lishi orqali ijtimoiy metaforaga aylandi. Shu bois Qutuz fenomenini zamonaviy ijtimoiy-falsafa kontekstida tahlil qilish, shaxsning tarixiy jarayonlardagi o'rni va funksiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

²⁸ Xodjaeva, R. (2021). Mamluk Period Arabic Literature (13th–15th centuries). Toshkent: Hilol Media.

²⁹ Ibn Taghrībirdī, J.A.M. (1992). Kitāb an-Nujūm az-Zahira fi Muluk Misr va al-Qahira, J.7. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiya.

U tarixiy voqeliklar oqimida shaxsning nafaqat hodisaviy roli, balki g'oyaviy-funksional kuch sifatidagi o'rnini tasdiqlovchi timsoldir. Qutuzning siyosiy faoliyati — bu ijtimoiy-falsafiy ma'noda “xizmat orqali legitimatsiya”, “jamiyatning umumiy ehtiyojlari asosida ijtimoiy ongni uyg'otish”, va “shaxs orqali ma'naviymilliy birlik yaratish” jarayonidir.

Qutuz hokimiyatga kelgan paytda Misr jamiyati inqirozda edi: iqtisodiy beqarorlik, ichki siyosiy bo'linishlar va mo'g'ullar bosqinining tobora yaqinlashuvi fonida jamiyatda ma'naviy tushkunlik, umidsizlik va parokandalik hukm surardi³⁰. Aynan mana shunday bosimlar ostida Qutuzning siyosiy lider sifatida sahnaga chiqishi ijtimoiy-falsafiy tilda “katarsis” — tozalanish va yangilanish lahzasi sifatida baholanadi. Jamiyat bu paytda “mudofaa” emas, balki “harakat” rejimiga o'tishga ehtiyoj sezayotgan edi. Qutuz bu ehtiyojga faol javob bo'lib, ruhiy uyg'onish orqali harakatni boshlab berdi.

Maxsus e'tiborga molik jihat shundaki, Qutuz hokimiyatga sulolaviy nasab orqali emas, xizmat va tarixiy zarurat orqali erishdi. Bu Weberian paradigmadagi “charizmatik-funksional legitimatsiya” modelining musulmon tarixidagi real aksidir. Qutuz kuchli siyosiy iroda, ijtimoiy sezuvchanlik va ijtimoiy ongni boshqarish qobiliyati bilan jamiyatda “qabul qilingan lider” sifatida qabul qilindi³¹ [(Al-Dawadari, 1971); (Al-Suyuti, 1967)]. Uning elchilarga qarshi qat'iy pozitsiyasi — Hulokuning tahdidli xatini olgach, mo'g'ul elchilarini qatlatgan harakati — bu harbiy signaldan ko'ra ko'proq

³⁰ Al-Maqrizi, Ahmad bin Ali. *As-Suluk fi Ma'rifa Duwal al-Muluk*. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1997.; Ibn Iyās. *Al-Badā'i' wa al-Zarā'i' fi Waqā'i' al-Duwal*. Qohira, 1963.

³¹ Al-Dawadari, Abu Bakr. *Kanz al-Durar wa Jami' al-Ghurur*. Qohira, 1971.; Al-Suyuti, Jalal al-Din. *Hasan al-Mahāzar fi Tarikh Misr wa al-Qāhira*. Qohira, 1967.

ijtimoiy performativ akt edi: jamiyatga “biz or-nomus bilan harakat qilamiz” degan xabar yuborildi³² [(Al-Dhahabi, 1993); (Al-Yunini, 1993)]. Ijtimoiy falsafa bunday holatni “performativ birlik” — ya’ni harakat orqali g‘oyaviy birlashuv deb izohlaydi.



³² Al-Dhahabi, Shams al-Din. Siyar A‘lam al-Nubala’. Bayrut: Al-Risala, 1985.; Al-Suyuti, Jalal al-Din. Hasan al-Mahāzar fī Tarikh Misr wa al-Qāhira. Qohira, 1967.